ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2025 / № 3. 1-3

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 3. 1-3

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.09.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.09.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.09.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

М У Н Д А Р И Ж А

TILSHUNOSLIK

XUDOYBERGANOVA DURDONA
Metaforalar shakllanishida antropotsentrik omillarning o‘rni 7

ЛУТФУЛЛАЕВА ДУРДОНА
Aksiolingvistikada qadriyat tushunchasi va uning turlari 10

SOBIROV ABDULHAY SHUKUROVICH
Andijon dialektal zonasi haqida 16

HAKIMOV MUHAMMADXON XO‘JAXOVICH
Genderoleksemalarning nominativ farqlanishi 20

QO‘ZIYEV UMIDJON YANDASHALIYEVICH
Dunyo tilshunosligida o‘zlashma so‘zlarga munosabat masalasi 25

ДУСТМУРОДОВ МАЪРУФЖОН МАНСУР ЎҒЛИ
Уйғур хоқонлиги даври ёдномалари туркумидан:
тариат (ТЭРХ) битиги ҳақида баъзи мулоҳазалар 28

UBAYDULLAYEV ALISHER ABDUSALOMOVICH
Ogahiy tarjimasidagi «Guliston» qo‘lyozmasining lingvistik tahlili 33

XUJAMKULOVA MAXBUBA BOBONAZAROVNA
Badiiy matnning presuppozitiv tahlili 38

XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Tog‘ay Murod nasriy nutqida metaforaning statistik tahlili 42

SHAYMARDANOVA AZIZA RAIMJANOVNA
Lingvistik kodlar aralashuvi tushunchasi va uning
lakunarlik hodisasini bartaraf etishdagi imkoniyatlari 48

ESHNIYOZOVA GULHAYO HAMROQUL QIZI
Halima Xudoyberdiyeva she’rlarida badiiy
san’atlarni qo‘llash mahorati 51

SULAYMONOV BOBIR
Izoh tipidagi o‘quv lug‘atlarda leksikografik
semantizatsiyaga qo‘yiladigan talablar 55

BOYSARIYEVA SAODAT
Morfem o‘quv lug‘atining amaliy jihatlari 58

DAVIDOV YUNUS JUMMAYEVICH
Badiiy asarlarda ko‘pma’nolilikning uslubiy xususiyati 61

ZARIPOVA MATLUBA QULFITDINOVNA
O‘zbek va rus tillarda tarjimaning lingvokulturologik
va peyorativlik muammolari 64

AZIZ AMINI
Frazeologik birliklarning o‘rganilishi va ularning leksikografik
xususiyatlari (Afg‘oniston o‘zbek dehqonlari nutqi misolida) 66

МУНДАРИЖА

ALLAMURATOVA XOSIYAT
O‘zbek antroponimikasida apotropeik komponentlarning
sodda va qo‘shma ismlarda ifodalanishi 69

РАДЖАПОВА НАТАЛЬЯ БАЗАРОВНА
Синонимические отношения в словах с
гендерными признаками узбекского языка 73

HATAMOV ZIYODIN MAMADULLAYEVICH
Badiiy uslubda modal so‘zlarning funksional-stilistik xususiyatlari 76

ALIMOVA E’TIBOR KAROMAT QIZI
O‘zbek xalq ertaklarida mifonim va teonimik birliklar 81

MUXAMMADALIYEVA SHAXZODA MAXMUD QIZI
Maqollar orqali ramziy ma’noning ifodalanishi 89

ABRUYEVA ZAXRO SHOKIR QIZI
O‘zbek tili murojaat shakllari tizimida kognitiv metaforaning o‘rni 92

XUDAYBERGANOVA MUNIRA
«Muqaddimatu-l-adab» asari ustida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar:
tilshunoslik va manbashunoslik yondashuvlari 96

ABDUQAHHOROVA XOSIYAT ABDURASUL QIZI
Tarixga oid terminlarda o‘z va o‘zlashma qatlam 100

SHADMANOVA ALYONA SERGEYEVNA
Paustovskiy hikoyalarida syujet poetikasi 104

QOSIMJONOVA FARANGIZ FARID QIZI
Iboralarning so‘z turkumlariga munosabati 108

ADABIYOTSHUNOSLIK

ҚУРОНОВ ДИЛМУРОД ҲАЙДАРАЛИЕВИЧ
Эътибордан четда қолган нашр 111

ШОФИЕВ ОБИДЖОН БАХТИЁРОВИЧ
Психологик таҳлил ва бадиий драматизм
(Эркин Аъзамнинг «Таъзия» ва «Ступка» ҳикоялари мисолида) 117

АЛИМОВ ПАРДА, АВРИДДИНОВ ЖОБИР
Бадиий характер муаммоси 121

YULDOSHEV DILMUROD
Matyoqub Qo‘shjonov talqinida qodiriy fenomeni («O‘zbekning o‘zligi» asari misolida) 123

ДИЛФУЗА ПАРДАЕВА
Художественные интерпретации образа Амира Нимура и его
времени в русской и узбекской поэзии XX века 129

BOLTAYEVA GULCHEHRA SHOKIROVNA
Taxmislarning spetsifik belgilari 132

yo kivirtikmi (hasharot) degan masalada tortishuvlar bor. Bu ham tilimizning ranginligiga ishora.

Umuman olganda, yagona bo‘lib ko‘ringan Andijon dialektining ichiga kiriladigan bo‘linsa, uning shu qadar rang-barang va etnik jihatdan ko‘p tarmoqli ekaniga guvoh bo‘linadi. Mazkur etnoslarning nutqini areal jihatdan o‘rganish, tadqiq qilish bizga juda ko‘p narsalarni berishi mumkin. Zero, davr bizdan shuni talab qilmoqda.

Резюме. Maqolada Andijon dialekti, uning shevalari, mazkur dialektning o‘zbek adabiy tili shakllanishi va taraqqiyotidagi o‘rni haqida fikr yuritildi. Asosiy etibor ushbu dialektning areal jiahatdan tarqalishiga qaratildi.

Резюме: В статье раскрывается роль андижанского диалекта в формировании и развитии узбекского языка, его диалектов и говоров, а также узбекского литературного языка. Основное внимание уделено выявлению ареала распространения этого диалекта.

Rezume: This article explores the role of the Andijan dialect in the formation and development of the Uzbek language, its dialects and subdialects, and the Uzbek literary language. The focus is on identifying the area of distribution of this dialect.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2025; 7-8
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

GENDEROLEKSEMALARNING NOMINATIV FARQLANISHI

Hakimov Muhammadxon Xo‘jaxovich,
Farg‘ona davlat univtrsiteti professori,
filologiya fanlari doktori

Ayni paytda genderoleksemalar ham borliqdagi narsa va hodisalarni nomlovchi birliklar sifatida erkak va ayollarga xos tushunchalarni farqlashda ishtirok etadi, turli jinsga mansub tushunchalarning nomi sifatida ularni differentsiatsiyalash ham nazarda tutilgan muammo mohiyatini yoritishga xizmat qiladi. Tilning boshqa sathlariga nisbatan leksik sath birliklari yuzasidan tadqiqot olib borish bir muncha osondek tuyiladi. Biroq bu sathda ham genderoleksemalar tizimiga oid lug‘aviy birliklar bilan ishlash rejalashtirilgan tadqiqot mohiyatidan kelib chiqadi, bunda gender muammolari tadqiqiga nominativ nuqtayi nazardan yondashuv ishning mohiyatini aniqroq belgilashga xizmat qiladi.

Ma’lumki, «gender erkak va ayollar madaniyatiga oid akkumulatsiyalangan tasavvurlardan iborat konvensional ideologik konstrukt sifatida tushuniladi»[1] va uning mohiyati tilning leksik birliklarida ko‘zga tashlanadi. Shuning uchun ham har qanday ifoda shaklining mazmuni tilning leksik sistemasi bilan bog‘lanadi. Erkak va ayollar nutqiga xos tushunchalar nominatsiyasi ifoda shakli uchun asos bo‘lib xizmat qiladi va shu madaniyatni ifodalovchi nomlar sifatida tahlilga tortiladi. Nimani nomlashidan qat’iy nazar nominativ birliklar o‘sha tilga mansub xalq yoki til egasi madaniyatini ifodalaydi, belgi sifatida esa genderoleksemalar ham u yoki bu ma’no orqali turlicha axborotlarni ifodalashga xizmat qiladi. Bu tildagi leksemalarda bo‘lgani singari frazeologizmlar, paremalar va hatto hikmatli so‘z va aforizmlarda ham ko‘zga tashlanadi. Ko‘rsatib o‘tilgan leksema va boshqa ifoda vositalarining har biri nominativ xususiyatga ega bo‘lib, ular leksik, frazeologik va kontekstual nomlanishlar sifatida izohlanadi. Leksik va frazeologik xarakterdagi nomlar narsa va hodisani ma’lum bir xususiyatlar asosida atash uchun xizmat qilsa, matn

[1] Мудрая М.В. Реконструкция системы гендерно маркированных лексем (на материале пословиц) //Филологические науки. Вопросы теории и практики 2017. № 10 (76) с. 143-144 www.Gramota.net/editions/2.html (murojaat sanasi: 1.10.2024)

yoki kontekstual nomlanishlar funksiyasini bajaruvchi birliklar ham shunday vazifa asosida ma'lum bir jarayon va voqeani nomlashga xizmat qiladi. Ularning mohiyati so'z, ibora nominatsiyasiga oid ilmiy tushunchalar bilan mukammallashadi. Avvalo, genderoleksemalar terminiga izoh berish zarur. Muayyan til egasi yoki muayyan tilga mansub jamoa ongida so'zlar va iboralar emik birlik sifatida mavjud bo'ladi. Lisoniy sistemaga mansub genderoleksemalar ham inson xotirasida mavjud bo'lib, ular ma'lum tamoyillar asosida ijtimoiy jinsning teng qiymatli korrelyativ qatorini tashkil qiladi. Lug'aviy birliklar ham til hodisalari bo'lganligi uchun ular kishilar xotirasida muntazam ravishda tilning nofaol qatlami sifatida mavjud bo'ladi. Kommunikantlar lisoniy tizimga oid nofaol genderoleksema («leksogenderemalar»)[1]lar fondidan muloqot jarayonida foydalanadilar. Natijada nofaol genderoleksema til sathidan nutq sathiga o'tadi hamda faol genderlekt so'zga aylanadi. Mazkur genderlekt termini sohaga oid maxsus lug'atlarda quyidagicha ta'riflanadi: «Genderlekt-xotin-qizlar yoki erkaklar nutqiga xos leksik, emotsional-ekspressiv, grammatik xususiyatlar...»[2] tushunchasini ifodalaydi.

Har bir tilda leksik sistemaga mansub birliklar shaxs, narsa, buyum va hodisalar nomini ifodalaydi. Genderoleksemalar ham tilda ayol va erkak jinsiga taalluqli bo'lgan sotsiumlar nomi sifatida til egalari va shu til jamoasi ongida lisoniy zahiralar sifatida saqlanadi. Bunday tipdagi genderoleksemalarga bevosita ayol va erkak jinsi tushunchalarini anglatuvchi so'zlar mansub bo'lib, ularning har biri yoshga, dinga, kasb va faoliyat turiga nisbatan genderoleksik paradigmani tashkil qiladi. Bunday genderoleksik paradigmalar dastlab tilshunoslikning onomastik tizimiga mansub birliklar sifatida o'rganiladi. Ular nominativ funksiya qoidalari asosida ma'lum sinflarga guruhlanadi. Buni lingvistik termin bilan ayol yoki erkak tushunchalarini ifodalovchi so'zlar guruhiga nisbatan genderolingvistik «mikromaydon»[3] deb aytish mumkin. Sohaga yo'naltirilgan ilmiy adabiyotlarda «Gender markirlangan nominatsiyaning leksik-semantik tizimi guruhiga sotsiofaktlar, korpusfaktlar, mentifaktlar nomlari kiritiladi, ular bevosita nomlanish guruhi hisoblanib, o'zida gender xabarlar kodlanish tipiga oid nomlanishni ifodalashga xizmat qiladi. Bu guruh tarkibi naturfakt va artefaktlar kabi guruhlar bilan to'ldirilib, ular bilvosita kodlanish tipi nominatsiyasi sanaladi... Gender xabarlarning ikki kodlanish darajasi mavjud bo'lib, ular erkak va ayol tushunchalari bilan reprezentatsiyalanuvchi genderning antropotsentrik asos fakti sanaladi. Ayni paytda erkak va ayol nomlanish spektorining semantik verbalizatsiyasida qon-qarindoshlik tizimiga oid nikoh-oilaga taalluqli nomlar, yosh va fiziologik holat ma'nosini ifodalovchi nomlar, diniy-mifologik tasavvurlarga asoslangan mavjudodlar, hayvonot va o'simliklar dunyosiga nisbatlangan gender nominatsiyalar guruhlashtiriladi»[4]. Yuqoridagi fikrlar asosida shuni alohida ta'kidlash lozimki, muayyan til egasi yoki shu jamoa ongida erkak va ayollar tushunchalarini ifodalovchi bir guruh genderoleksemalar mavjudki, ularni genderxabar kodlanish tizimining maxsus tipi sifatida ijtimoiy faktlarga asoslangan xabarni ifodalovchi nomlar, qon-qarindoshlik *(ota-ona, opa-singil, aka-uka, amma-hola, o'g'il-qiz, amaki-tog'a, buva-bobo)* tushunchasini aks ettiruvchi nomlar, yosh va fiziologik (*qari qiz, bo'ydoq, bo'yqiz, bo'yiga yetgan, qizaloq, qizcha, bolakay, kelinchak, kampir, chol, og'iroyoq, homilador, yukli*) ma'lumotlarni ifoda etuvchi korpusfaktlar nomi, erkak va ayol tushunchalari bilan farqlanuvchi hamda mifologik tasavvurlar asosida shakllangan mentifaktlar (*jodugar, yalmog'iz, hur, g'ilmon, pari, farishta, qorabotir*), ayol va erkak tushunchalari konnonatatsiyasiga asoslangan naturfaktlar (*xo'roz-makiyon, megajin, qo'chqor, lochin, sher, ayiqpolvon, ilon, anakonda, tulpor, toychoq, bo'taloq*) va artefaktlar (*gul, atirgul, lola*) kabi nominatsion guruhlarga ajratish muhimdir.

Yuqoridagi genderonominatsion guruhlanishdan tashqari *qiz, opa, singil, kelin, kelinchak, ovsin, kundosh, amma, xola, buvi, ona, kampir, qaynana, qaynisingil, qayniopa, yesir, beva, oqsoch* kabilar ayol jinsiga oid tushunchalarni ifodalovchi so'zlar bir mikromaydonga birlashadi. Bu so'zlarning har birida ayol jinsiga oid birlamchi nominatsion belgi mavjud bo'lib, u muloqot jarayonida kommunikantlarning qaysi jinsga oidligi haqida tushuncha ifodalashga xizmat qiladi. Shu o'rinda ayol jinsini ifodalovchi xotun va xund so'zlarining etimologik tahlilini keltirish muhimdir: «Mamluk sultonlari davrida jamiyatdagi ayollarning mavqeyi... mamluk toifasida bo'ladimi yoki boshqa odamlarmi, ayollarga juda hurmat ko'rsatilgan. Mamluklar ayollarga hurmat va ehtirom ko'rsatib, «xund» va «xotun» kabi nomlar bilan ataganlar. Xunda nomi sultonlarning xotinlariga xos bo'lgan, lekin ba'zi joylarda katta tabaqa ayollarga nisbatan ham qo'llanilgan. Xotun so'ziga kelsak,

[1] Komilova N.A. Gender konseptual semantikasi verbalizatorlari va ularning lingvokulturologik xususiyatlari qiyiosiy tadqiqi (hozirgi zamon ingliz va o'zbek tillari materiallari): Filol.fan.fal dok.(PhD) diss.avtorf. – Farg'ona, 2024. – B. 16

[2] Сафаров Ш.Социолингвистика: инглизча-русча-ўзбекча луғат. – Қарши: Intellekt, 2023. – Б. 60.

[3] Искандарова Ш. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сидон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони): Филол.ф. док. дисс... автореферат. – Тошкент, 1999. – 52 б.

[4] Мудрая М.В. Реконструкция системы гендерно маркированных лексем (на материале пословиц) //Филологические науки. Вопросы теории и практики 2017. № 10 (76) с. 143-144 www.Gramota.net/editions/2.html (murojaat sanasi: 1.10.2024)

u, dastlab, *malika, amira* degan ma'noni anglatadi, keyinchalik esa umuman, ayol yoki xonim ma'nosida ham ishlatilgan. O'zbek tilida «xotin» so'zi ayol ma'nosida qo'llaniladi»[1]. O'zbek tilining izohli lug'atida xotin so'zining quyidagi ma'nolari beriladi: Xotin 1 Jinsiy jihatdan erkak toifasiga zid, farzand ko'rish, emizish qobiliyatiga ega odam; ayol. B*ozorqulning onasi juda chiroyli xotin edi*. A.Muhtor, Chinor. Xotin kishi ayn. Xotin. -*Yoshing yigirma beshga qarab ketyapti, -dedi onasi, - xotin kishi o'ttizga kirsa, o'tin bo'ladi*. O'.Hoshimov, Qalbingga quloq sol. 2 Biror erkak nikohidagi ayol. *Er-xotinning urushi-doka rumolning qurishi.* Maqol[2].

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, *xotin* so'zining denotativ ma'nosi ayol jinsiga oid tushunchani ifodalaydi, biroq u alohida nominativ birlik sifatida ayollarga qo'llanuvchi dominant so'z hisoblanadi. Bu jihatdan yuqorida qayd etilgan ayol mikromaydoni tarkibida xotin so'zi dominant belgiga ega ekanligini alohida ta'kidlash kerak. Bu ma'no shu sema mikromaydoniga mansub so'zlar ichida yetakchilik qiladi va boshqa ma'nolarning shakllanishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Birgina ayol semasi asosida shakllangan boshqa genderoleksemalar erga nisbatan xotin, farzandga nisbatan ona, erning ikkinchi xotiniga nisbatan kundosh, erning qarindoshlariga nisbatan kelin kabi nominatsiyalarni hosil qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham ayol jinsi mikromaydoniga kiruvchi bu genderoleksemalarning ikkinchi nominatsion belgisi mazkur lug'aviy birliklar paradigmasida so'zning ijtimoiy funksiyasi bilan farqlanadi. Xususan, ayol jinsi ma'nosini ifodalovchi har bir nominativ birlik shu til egasining ijtimoiy va diniy maqomi bilan ayol semasiga nisbatan ikkilamchi nominatsion funksiyasi asosida o'zaro farqlanadi. Demak, ayol so'zi mavjud, shu bilan birga ayol semasi ham mavjud. Ayol semasi sanab o'tilgan barcha so'zlarda ishtirok etsa-da, biroq ular alohida-alohida so'zlar sifatida ayol semasi mavjud bo'lgan lug'aviy birlik sifatida e'tirof etiladi. Ularni ayol so'zining sinonimlari sifatida qo'llash mumkin emas, bunday tipdagi turli turkumlarga mansub bo'lgan birliklarning bir mikromaydonga birlashishi faqat ayol yoki erkak semasi yoki ayolga yoki erkakka tegishli narsaning nomi bo'lgani uchundir. Shuning uchun ham qiz yoki ovsin, kelin yoki kundosh kabi ayollik semasi paradigmasini ifodalovchi har qanday so'z ikkilamchi nominatsiya asosida motivlanadi. Masalan, kundosh leksemasi bir erkakning ikki xotini tushunchalariga nisbatan nominatsiyalanadi. Kundosh so'zining lug'aviy ma'nosi «bir er nikohidagi bir necha xotin (bir-biriga nisbatan)»[3]. Masalan, *Olimbek dodxoning* ***sakkiz xotini katta kundosh*** *Nodirmohbegimning uyiga yig'ilib, sandal atrofida o'tirishar edi. Dodxo har kecha taroveh namozidan keyin halqaga qolar edi, bu kecha erta qaytdi. Hamma to'zidi: xotinlardan biri uning sallasini oldi, biri chakmoniga qo'l uzatdi, biri mahsisini tortgani chog'landi... Kundoshlarning eng kichigi – bu dargohga tushganiga besh oygina bo'lgan* ***kelinchak*** *– ganjiravonlik Unsinoy chilim solib tutdi. Dodxo chilimni bir marta, lekin juda qattiq tortdi-yu, yasov tortib turgan xotinlariga e'tibor qilmay, to'rga o'tdi va darchani jindakkina qiya qilib, bir ko'zi bilan tashqariga qaradi. Shamol goh och bo'riday uvillar, goh o'lim changaliga tushgan mushukday pixillar, vag'illar, hech narsa-hech narsa ko'rinmas edi.* (A.Qahhor «Dahshat»)

Kanizak so'zida ham ayol semasi mavjud bo'lib, u o'zbek tilining izohli lug'atida quyidagi tartibda izohlanadi. «Kanizak-[cho'ri, xizmatchi, oqsoch xotin] 1. Tutqun ayol, cho'ri. Endi menga birmuncha xodim, kaniz, maishat anjomlari berasiz. «Latifalar»

2. Xon, amir va boshqa hukmdorlar saroyidagi xizmatchi ayol. Shoir haramdagi kanizlardan biri bilan aloqa bog'lagan ekan. A.Qodiriy, Mehrobdan chayon»[4].

Demak, ayol tushunchasining birlamchi nominatsiyasi hisoblangan har qanday so'zning ikkilamchi nomlanish belgisi til egalarining ijtimoiy maqomiga nisbatan belgilanadi va shu tarzda nomlanadi. Ayollik semasi mikromaydoni sinfiga mansub so'zlar paradigmasi til egalari tafakkurida mavjud nomlanish belgilari asosida o'zaro differensiatsiyalanadi, tilda esa alohida tushunchani ifodalovchi denotat nomi sifatida namoyon bo'lishi bilan birgalikda ayol semasi mikromaydoniga mansub so'zlar sifatida genderoleksemalar turkumini hosil qiladi.

Huddi shunday tartibda erkak jinsi tushunchasini ifodalovchi so'zlar ham erkak semasi asosida bir mikromaydonni hosil qiladi. Bu mikromaydon sinfiga mansub so'zlar qatoriga *o'g'il, bola, yigit, er, aka, uka, tog'a, amaki, dada, bobo, chol, qaynata, qaynag'a, qayniuka, pochcha, kuyov, beva, og'a, ini* kabi so'zlarni kiritish mumkin. Erkaklik semasi asosida bir mikromaydon sinfiga mansub bu so'zlar ham til egalarining ijtimoiy maqomi asosida bir-biriga nisbatan boshqa denotatlar nomi sifatida paydo bo'ladi. Nominatsiya nazariyasiga ko'ra, erkak jinsi tushunchasi semasini ifodalovchi so'zlar guruhi birlamchi nomlanish xususiyatini namoyon qiladi. Birlamchi nominatsiya tushunchasi denotativ ma'noga asoslangan nom bo'lib, u til egalari tafakkurida ana shu ma'no asosida boshqa nomlardan farqlanadi. Har

[1] Сафаров Ш.Социолингвистика: инглизча-русча-ўзбекча луғат. – Қарши: Intellekt, 2023. – Б. 60.
[2] O'zbek tilining izohli lug'ati. VI jildli.– Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B. 47.
[3] O'zbek tilining izohli lug'ati. VI jildli.– Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B. 431.
[4] O'zbek tilining izohli lug'ati. VI jildli.– Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B. 28.

qanday so‘z ma’lum bir narsaning nomi sifatida mavjud bo‘lib, o‘zida denotat mohiyatini aks ettiradi, shu bilan birga u yoki bu kabi o‘rindosh tushunchalar denotatga xos erkaklik semasini saqlagani holda yosh yoki ijtimoiy ma’no komponentlarini ifoda etadi. Masalan, oqsoqol, imom, mutavalli, so‘fi, bo‘ydoq, kuyov kabi so‘zlarning semantik strukturasi erkak semasi asosida shakllangan yosh va ijtimoiy ma’nolarni ham ifodalaydi. Bular erkaklik semasini ifodalovchi so‘zlar mikromaydoni sinfiga mansub bo‘lgan har qanday genderoleksemaga xos belgidir. Yuqorida qayd etilgan nomlar shaxsning ijtimoiy maqomi yoki bajarayotgan vazifasiga nisbatan motivlangan bo‘lib, ular ham birlamchi nominatsiya tushunchasi bilan izohlanadi. Ikkilamchi nominatsiya tushunchasi esa borliqdagi narsa, buyum va hodisalarga qo‘yilgan nomlarni yana bsohqa bir narsalarga qo‘yilishi bilan belgilanadi. Jumladan, qumri, qo‘chqor kabi paranda va hayvon nomlari shaxsga nisbatan qo‘llanilganida ikkinchi nomlanishni hosil qiladi. Qo‘chqor so‘zi qo‘yning erkagiga nisbatan qo‘llanadigan so‘z bo‘lib, u birlamchi nominatsiya tipidagi so‘zlar guruhiga mansubdir. Bu nomning shaxsga nisbatan qo‘llanishi esa ikkilamchi nominatsiya hisoblanadi. Har ikkisida ham jins semasi mavjudligi kuzatiladi. Masalan:

Alomat: (odob bilan) Assalomu alaykum.

Qo‘chqor: (qo‘rqa-pisa). Va... Vaalay...

Olimjon: Sening isming--Alomat. Tushundingmi?

Alomat: Tushundim. Mening ismim–Alomat.

Olimjon. Bu kishi–Qo‘chqor aka.

Qo‘chqor(arang jilmayib). Shundoq, shundoq...

Alomat. Qo‘chqor aka.

Qo‘chqor. Labbay?..

Alomat. Ko‘nglingizga kelmasin-u, nega sizga hayvonning nomini qo‘yishgan, «qo‘chqor» deb?

Qo‘chqor (Olimjonga). Iye?..

Alomat. Qo‘chqor–qo‘yning erkagi-ku.

Qo‘chqor. Haligi... nima deydi... Ha endi, biz odamning erkagimiz-da, Alomatxon...

Alomat. Menga nima xizmat bor, odamning erkagi?

Olimjon. Alomat, «Qo‘chqor aka» de, «Qo‘chqor a-ka». Tushundingmi?

Alomat. Tushundim. Xo‘sh, nima xizmat bor? Qo‘chqor aka? (Sh.Boshbekov «Temir xotin»).

Alomat nutqidagi «Qo‘chqor qo‘yning erkagi-ku» kabi izohlarda genderologik tafakkurga xos qo‘chqor kabi genderoleksemaning tilga xos izohi aks etgan. Genderoleksema mikromaydoniga kiruvchi so‘zlar sinfini har xil tamoyillar asosida belgilash mumkin. Masalan, genderoleksemalar tenglik tamoyili asosida *bo‘yiga yetmoq va bo‘ydoq, kelin va kuyov, qiz va o‘g‘il, uylanmoq va turmushga chiqmoq, kampir va chol, er va xotin, beva, tul kabi so‘zlar har ikki jinsga taalluqlilik ma’nosida eri yoki xotini o‘lgan shaxsga nisbatan qo‘llanadi (ham unisi ham bunisi) «Beva eri o‘lgan yoki taloq qilingan xotin, eri yoki xotini o‘lgan va boshqa turmush qilmagan; tul. Beva chol, beva xotin»*[1] . ***«Tul eri yoki xotini o‘lib yolg‘iz qolgan beva, yesir»***[2]*, «Juvon yosh, umrining yarmiga ham yetmagan odam yoki hayvon. 1. Turmushga chiqqan yosh ayol. 2. Erdan chiqqan yoki tul qolgan xotin»*[3]. kabi so‘zlar sinfini ham ajratish mumkin. Bu jihatidan bir mikromaydon sinfiga mansub genderoleksemalar guruhi turlicha morfologik belgilarga ega bo‘lishi mumkin. *Suluv, go‘zal, chiroyli, nozik, nazokatli, ofatijon,* y*engiltak, suyuqoyoq (ayolga xos), chapani, tanti, botir, shilqim (erkakka xos)* kabi so‘zlar ham ayol va erkaklik semalari asosida differensiatsiyalanadi. Ayni paytda ular ayol va erkakka xos sifat va verbal xulqlarni ham belgilashga xizmat qiladi. Ayollik yoki erkaklik tushunchalari mikromaydoniga kiruvchi genderoleksemalar qatoriga ularga tegishli narsa va buyumlarning umumiy nomlarini ham keltirish mumkin. Masalan, *kiyim nomlari: atlas ko‘ylak va yaktak, paranji va to‘n, ro‘mol va do‘ppi, lozim va shim* kabi genderoleksemalar paradigmasi tilning leksik sistemasiga oid genderologik tadqiqotlarning dalillari bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ayni paytda ayollarga taalluqli narsalar nomi va ularning erkaklar uchun lakunar birlik ekanligi, jumladan, taqinchoqlar nomi: *baldoq, uzuk, sirg‘a, bilaguzuk, tillaqosh; pardoz* buyumlari nomi: *surma, o‘sma, hina, lak, tush, g‘oza* kabi genderoleksemalar ayollarga tegishli narsalar nomi sifatida alohida guruhni tashkil qiladi.

Tilning konnotativ strukturasi esa birlamchi nominativ birliklar bazasida kishilar o‘rtasidagi o‘zaro kommunikativ munosabatni amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Ular nutq vaziyati va kontekstdan kelib chiqqan holda kontekstual va ifoda ma’nolari bilan lingvogenderologik tadqiqotlar uchun material beradi. Tilning muloqot jarayonidagi bu xususiyatlari turli ma’no va ottenkalarni yuzaga chiqaruvchi *mehribonlik, xushomad, maqtov, jerkish, qarg‘ish, suyulish, qo‘pollik, mayinlik, nazokatlilik, hayo, ibo, yuzsizlik, shallaqilik* kabi nutqiy aktlarda namoyon bo‘ladi. Masalan, boshqa turkumga xos bo‘lgan hayo va ibo so‘zlari ifodalagan tushunchalar dastlab ayol va qizlarga tegishli bo‘lib, o‘zbek milliy madaniyatida har bir ayol jinsiga, ayniqsa, yosh va turmushga uzatiladigan qizlar nutqida *iffat, hayo, ibo* kabi belgilar namoyon bo‘ladi. Bunday madaniyatning lisoniy ifoda vositalarida aks etishi tildagi nofaol gende-

[1] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildli.– Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B. 74.
[2] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildli.– Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B. 247.
[3] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildli.– Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B. 695.

roleksemalar hisobiga amalga oshiriladi, ba'zida ular lug'aviy birliklardan farqlangan holda nutqiy aktlar sifatida namoyon bo'ladi. Bu ayollar tili va madaniyatiga xos ifoda shakli sifatida nofaol birlikning faol birlikka aylanishi bilan belgilanadi. Masalan,

– *Saodat, – dedim. Qaradi. O'choqda yongan olov issig'idanmi yoki uyatdanmi uning yuzi qip-qizil olma edi. Qo'lidagi sochig'i bilan oldimga yaqin kelib to'xtadi. – Eshitdingmi, – dedim. Yerga qaradi. Uni ortiqcha uyaltirmas uchun eshikka qarab yuriy boshladim-da, - Maylimi? – deb so'radim. Javob o'rniga*

–Osh yemay ketasizmi? – dedi. Bu uning ikkinchi turlik qilib aytilgan «mayli» javobi edi (A.Qodiriy).

Saodatning *Osh yemay ketasizmi* tarzidagi ikkinchi turli qilib aytilgan *ha* javobi o'zbek qizlari tiliga xos *ibo, hayo, iffat* kabi odob tushunchalarini ifodalovchi madaniyatdir. *Ibo, hayo, iffat* kabi genderoleksemalar badiiy matnda implitsit shaklda ifodalanganligi uchun ham ularni genderpragmema deb atash to'g'ridir. Genderoleksemalarning nutq jarayonida faollashuvi yoki aktuallashuvi bir jihatdan lug'aviy birliklar hisobiga, ikkinchi jihatdan nutqiy aktlar hisobiga ro'y beradi. Shuning uchun ham genderoleksema va genderopragmema tushunchalarini farqlash zarur. Bular lug'aviy birliklar va nutqiy aktlar tizimiga oid alohida tushunchalar sifatida izohlanadi. Kuzatishlar davomida shu narsa ayon bo'ldiki, til va nutq hodisalari tilning genderolingvistik tadqiqida ham ustuvorlik qilishi, genderolingvistik ifoda vositalari ham nutqiy akt ham leksemalar hisobiga yuz berishi ma'lum bo'ldi. Bu esa muayyan tilning lingvogenderologik tadqiqi uchun J.Ostin hamda J.Serllarning nutqiy akt nazariyasi konseptual asos bo'lib xizmat qilishini anglatadi. Demak, leksik yoki lug'aviy xarakterdagi birliklar denotativ ma'nodan tashqari so'zning semantik strukturasida jins yoki gender ma'nosini ham ifodalashga xizmat qiladi. Ular kontekstda erkak va ayol nutqiga xos differensiatsiyalanishni ko'rsatadi. Buni tilda qo'llanuvchi arab tilidan o'zlashgan kotib, kotiba, muhtaram va muhtarama, shoir va shoira kabi so'zlarda yozish, ijod qilish, hurmat bildirish kabi denotativ ma'nolardan tashqari ayol yoki erkak jinsiga mansublilikni ifodalovchi ma'no komponentlarida ham ko'rish mumkin, bu haqida F.Mo'sayeva[1] o'zining nomzodlik dissertatsiyasida ham fikrlar bildiradi.

Haqiqatan ham tilning leksik sathini lug'aviy birliklarga boy hodisa sifatida alohida ta'kidlagan holda yana shuni aytish mumkinki, borliqdagi narsa-hodisa, voqealarning nomlari ular haqidagi tushunchalar mohiyatini o'zida to'liq aks ettiradi. Shu jihatga ko'ra, o'g'il yoki qiz degan so'zga tegishli tushunchada dastlab qaysidir biologik jinsga mansublilik belgisi mavjud bo'lsa, ana shu ma'no ifodasi saqlangan holda *qizaloq, singil, opa, qiz, amma, xola, ona, aya xotin, juvon, zavja, ayol, kelin, ovsin, kundosh, buvi, kampir, kanizak, malika, marhuma, qaynona, yesir, cho'ri, oqsoch* kabi leksik birliklarda ayol va uning ijtimoiy farqlanishiga oid giponim va giperonimlar kuzatiladi. Bular, albatta, tilning leksik sathiga xos bo'lgan nofaol lug'aviy birliklar tizimidan iborat ayol jinsining ijtimoiy nominativ birliklaridir. Muloqot jarayoni esa faollashgan lug'aviy birliklarning sintagmatik va pragmatik munosabati asosida jins ifodasi va ularning farqlanishiga xos nutqiy aktlar mazmuni bilan aktuallashadi. Lug'aviy birliklarning kontekstual sistemaga kirishi hamda o'ziga xos kontekstual ma'no komponentlari bilan aktuallashishi natijasida erkaklarga xos xushomad yoki so'kinish, qo'pollik yoki tahdid kabi ma'no ottenkalari ifodalanadi. Ayollar nutqida esa o'ziga xos mayinlik, latofat, hayo va ibo, ba'zi o'rinlarda ularning noo'rin xatti-harakatlari natijasida salbiy ma'no ottenkalari ham namoyon bo'ladi.

Rezyume.Tilshunoslikning yangi sohalaridan biri hisoblangan lingvogenderologiya masalalariga bag'ishlangan izlanishlarning aksariyatini tilning leksik sathiga oid tadqiqotlar tashkil qiladi. Shuning uchun ham mazkur ishda biz ham tilning leksik sathiga oid birliklarning genderologik xususiyatlari haqida o'z mulohazalarimizni berishni lozim topdik, mazkur ishda boshqa tadqiqotlardan farqli tarzda gender masalalariga oid lug'aviy birliklar nominatsiyasi masalalariga e'tibor qaratiladi.

Resume. Most of the research dedicated to issues of linguogenderology, one of the new fields of linguistics, consists of studies related to the lexical level of language. Therefore, in this work, we also found it necessary to present our reflections on the genderological characteristics of lexical units of the language. Unlike other studies, this work focuses on the nomination issues of lexical units related to gender matters.

Резюме. Большая часть исследований, посвящённых вопросам лингвогендерологии – одной из новых областей лингвистики, – связана с изучением лексического уровня языка. Поэтому в данной работе мы также посчитали необходимым представить наши размышления о гендерологических характеристиках лексических единиц языка. В отличие от других исследований, в данной работе уделяется внимание вопросам номинации лексических единиц, связанных с гендерными аспектами.

[1] Мусаева Ф.Т. Ўзбек тилида жинс тушунчасининг ифодаланиши: Филол.фан.фал.док-ри(PhD) ... дисс. – Тошкент, 2019. – 42 б.